


Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 18-avgust, chorshanba № 33 (9358)

Xalq ziyolilari gazetasi



O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Direktorimizning xodimlar bilan o'z xonasida, yakka uchrashib gaplashadigan odati bor. Dars taqsimoti oldidan ham shunday holat bo'lishi turgan gap. O'ziga ko'proq "yoqadigan" o'qituvchilar bilan birinchi gaplashib darslarni berib oladi.

Keyin esa boshqalar.

Anipa ABDIMURATOVA

Universitetlar: pandemiya va kelajak

7-bet



Emlandingizmi?
Yoxud vaksina koronavirusdan qutulishda yagona chora

3-bet

O'qituvchilar guruhimizda topshiriqlar doim katta harflar bilan yoziladi. Yaqinda ham shunday bo'ldi. Bajargan bajardi, bajaraganlarni nomma-nom yozishdi. Xullas, to kechgacha guruh "yondi". Menam asabiylashib boshqa telefonga qaramadim. O'sha kuni yomon xabar eshitdik. Yaxshigina yurgan matematika o'qituvchimiz olamdan o'tibdi. U topshiriqni bajaravermagach, metod-birlashma raisiga qo'ng'iroq qiling, bo'lmasa, o'zingiz bajarasiz deysinghan. U ish masalasida qo'ng'iroq qilsa, o'g'li go'shakni ko'tarib shu xabarni aytibdi.

Xullas, bu voqeadan keyin rahbarlar sokinlashib qoldi. O'ylab qolaman, yaxshi inson bo'lish uchun, yaxshilik qilish uchun kimnidir yo'qotish kerakmi?

Sanobar TO'RAQULOVNA

Yaqinda "Yilning eng yaxshi tarbiyachisi" respublika tanlovining viloyat bosqichida bir qarindoshim qatnashdi. To viloyat miqyosigacha albom, taqdimot, videorolik, dars o'tish uchun ko'rgazmali qurollar yasadi. Ikki oy davomida o'qidi, izlandi. Viloyatda subbatdan yaxshi o'tdim dedi. Keyin ishlarini "You Tube"ga joylashtirgan. Ammo 3 kun ichida kim ko'p layk olsa, o'shanga qarab baholanibdi. Eng qizig'i, viloyat bosqichi g'oliblariga 5 yo'nalishda bitta diplom bilan bitta tefal choynak berilibdi. Qarindoshimning ishi kam ko'rilgani uchun o'sha tefaldan ham quruq qoldi. Ana sizga tomosha! Shuncha yugur-yugurlar, jonfidolik, laykka qarab o'tirsa. Inson sha'ni bunga arzimidi?

Madina BAXSHILLOYEVA



O'qituvchilarga metodxonalar kerak!

6-bet

Tirikchilik farzand tarbiyasidan ustunmi?

4-bet

O'zbekistonda milliy virtual **3D** universitetni yaratish texnologiyasi va bosqichlari

5-bet

Markaziy saylov komissiyasining axboroti

2021-yil 14-avgust kuni Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda okrug saylov komissiyalarining shaxsiy tarkibi tasdiqlandi va ommaviy axborot vositalari vakillari akkreditatsiyadan o'tkazildi. Shuningdek, 2021-yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda ishtirok etish uchun siyosiy partiyalarga ijozat berish to'g'risida arizalar kelib tushishi navbatida quyidagi qarorlar qabul qilindi:

1. O'zbekiston Ekologik partiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishiga ijozat berish to'g'risida Markaziy saylov komissiyasining 1094-sonli qarori;

2. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishiga ijozat berish to'g'risida Markaziy saylov komissiyasining 1095-son qarori;

3. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishiga ijozat berish to'g'risida Markaziy saylov komissiyasining 1096-sonli qarori;

4. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishiga ijozat berish to'g'risida Markaziy saylov komissiyasining 1097-son qarori;

5. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishiga ijozat berish to'g'risida Markaziy saylov komissiyasining 1098-son qarori.

Mazkur qarorlar Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb saytida e'lon qilindi.

Markaziy saylov komissiyasi
Matbuot xizmati

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida 2017–2021-yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar va ularning dastlabki natijalariga to'xtalar ekan, yurtimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ta'lim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar haqida o'z-fikr mulohazalarini bildirdi.

Renessans maktabdan boshlanadi

Keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham chuqur islohotlar olib borilmoqda. Bu borada o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilingani barchamizga ma'lum. Mana, yaqinda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi.

Shuningdek, so'nggi yillarda tub islohotlar olib borilayotgan sohalardan biri Xalq ta'limi tizimi desak, adashmagan bo'lamiz. Aynan shu tizimda-gi islohotlar ertangi kunimiz qanday bo'lishini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zero, chuqur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishini ta'minlashda aynan maktablarda berilayotgan ta'lim-tarbiya asosiy o'rin tutadi.

Shu o'rinda, Prezidentimizning "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantana-

li marosimda so'zlagan nutqida "Biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik", deb ta'kidlagani butun ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish uchun zamin yaratdi desak, mulbag'a bo'lmaydi.

Bu borada ta'lim tizimi, jumladan, xalq ta'limi sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Lekin biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ta'limni yangi bosqichga olib chiqishimiz darok.

Suhbat davomida Prezidentimiz "Yoshlar — xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamlı islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasbhunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi", deya qayd etib o'tdi.

Olib borilayotgan islohotlarning yuqun namunasi sifatida joriy yilda butun yangi formatdagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi" va

uning tasarrufidagi Prezident, ijod, ixtisoslashgan maktablar tashkil etilib, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash borasida ishlar jadal olib borilmoqda. Islohotlar o'z samarasini bermoqda. Xususan, 2021-yil 20 – 26-aprel kunlari o'tkazilgan, 28 ta davlatdan 200 dan ortiq o'quvchilar ishtirok etgan 55-Mendeleyev xalqaro kimyo olimpiadasida Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 3 nafar o'quvchisi 2 ta kumush, 1 ta bronza, 2021-yil 25-iyul–2-avgust kunlari Yaponiya davlati tomonidan tashkil etilgan, dunyoning 65 davlatidan 260 nafar o'quvchi qatnashgan 53-Xalqaro kimyo olimpiadasida ikkita bronza medal, 75 dan ortiq mamlakatdan o'n mingdan ortiq iqtidorli o'quvchi ishtirok etgan 17-Xalqaro rus tili olimpiadasida kumush medal qo'lga kiritildi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish orqali Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi" shiori ostida xalq ta'limi tizimini yangi bosqichga olib chiqishga kamarbasta bo'lib, xizmat qilishga tayyor ekanimizni bildiramiz.

Jamolidin KAMOLOV,
Abu Ali ibn Sino nomidagi
yosh biologlar va kimyogarlar
ixtisoslashtirilgan maktab-internati
direktori

Munosabat

Prezident so'zlaridan ilhomlanib

"Yangi O'zbekiston" gazetasining 2021-yil 16-avgust kungi sonida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bilan qilingan intervyuni o'qir ekanman, men ham quyidagi fikrlarimni yozishga kirishdim. "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" sarlavhasi ostida chop etilgan ushbu suhbat ertangi kunning fayzli va barokattli shukuhidan darak beribdi.

Ma'lumki, sanoqli kunlardan so'ng shonli Mustaqilligimizning 30 yilligini nishonlaymiz. O'rta qolgan yillar davomida, Prezidentimiz aytganidek, misli ko'rilmagan natijalarga erishdik. Jamiyatimizning turli soha va yo'nalishlarida o'ziga xos islohotlar, demokratik o'zgarishlar kundan-kunga jadal sur'at kasb etmoqda.

Albatta, 30 yil davomida amalga oshirilgan ishlarni sanash, sarhisob qilish yoki ularni sharhlab o'tirishga hojat yo'q. Chunki barcha islohotlar natijasi xalqimiz ko'z o'ngida o'z aksini topmoqda. Mustaqillikning 25 yilligida poytaxtimizda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ochildi. Bu so'nggi yillarda amalga oshirilgan ishlarning eng ulug'i hisoblanadi. Istiqlolning 30 yilligi arafasida mazkur universitet o'zining shonli 5 yilligini nishonladi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida uning tili va adabiyotini, milliy qadriyatlarini va urf-odatlarini o'rganuvchi universitet yo'q edi. Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti shaxsan Prezidentimiz tashabbusi bilan ochildi. Mazkur univer-

sitet ilimimizning nufuzi va mavqeyini oshirish masalasini davlat siyosati darajasiga olib chiqdi.

Eng quvonarli va olamshumul voqealardan biri Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-yig'ilishida tarixda birinchi bor o'zbek tili jahon minbaridan yangradi. Bu tarixiy voqeani birinchi bo'lib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev amalga oshirdi.

Suhbatni o'qir ekanman, haqiqatan qisqa davr ichida O'zbekistonimizda ko'plab zarur islohotlar amalga oshirilganini yana bir bor his qildim. Jumladan, xalq bilan muloqot tizimi yaxshilanib, aholi muammolarini o'rganib, yechim topish ishlari jadal olib borilmoqda. Xalq o'z haq-huquqlarini yanada teranroq anglay boshladi. Prezidentimiz ham intervyuda bu boradagi islohotlar haqida to'xtalib, xalq manfaatlarini hamma narsadan ustun ekanligini yana bir bora ta'kidlabdilar: "Siyosiy-huquqiy nuqtayi nazardan davlatga "xalq xohishi-irodasini ifoda etadigan organ" deb ta'rif beriladi. Davlatni kim shakllantiradi? Xalq va uning muxtor vakillari. Binobarin, davlat va uning organlari avvalo kimga xizmat qilishi

kerak? Albatta, xalqqa, turli mansab egalariiga ovoz bergan va ishonch bildirgan fuqarolarga.

Shu ma'noda, xalqimiz davlat xizmatidan rozi bo'lishga har tomonlama haqli va munosibdir.

Ana shunday tamoyillar asosiga qurilgan davlat hokimiyatigina tom ma'noda xalqchil, demokratik hokimiyat hisoblanadi. Bunday davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy ildizlari mustahkam va baquvvat bo'ladi. Shu sababdan biz xalqimizning og'irini yengil qilish, uning muammolarini vaqtida va samarali yechish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini yaxshilashni barcha islohotlarimizning bosh maqsadi etib belgiladik.

Men davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan 2017-yilga mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili", deb nom berganimiz zamirida ham aynan shunday itilish va harakatlarimiz mujassam ekanini anglash qiyin emas, deb o'ylayman".

Prezidentimizning shu mazmundagi ishonchli va o'tkir qarashlari, davlat va hukumat oldiga qo'yan ulkan maqsadlari shu yurtda istiqomat qilayotgan har bir insonga ertangi kun rivoji uchun mas'uliyat yuklaydi.

Azimjon DAVRONOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
"O'zbek tili" kafedrası o'qituvchisi

JSS'ning bildirishicha, vaktsinaning bir dozasi insonda uch oygacha immunitet hosil qiladi.

Dolzarb mavzu

Emlandingizmi?

yo'xud vaktsina koronavirusdan qutulishda yagona chora

Mana bir yarim yildirki, yurtimiz va dunyoda pandemiya hukm surmoqda. Endilikda koronavirusning yangicha shtammlari paydo bo'lib, aholini yanada og'ir ahvolga solmoqda. Covid-19 sabab davlatlar mislsiz moddiy va ma'naviy zarar ko'rdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, shu kunga qadar 340 million kishi kasallikka chalingan va 3,5 milliondan ortiq inson qurbon bo'lgan. Bu raqamlardan anglashiladiki, virus insoniyatga katta talofat yetkazdi. Dunyo tibbiyot olimlarining sa'y-harakatlari bilan koronavirusni yengishning yagona yo'li sifatida vaktsinalar ishlab chiqildi. Vaktsina koronavirusdan qutulish, oldingi tinch hayotga qaytishning birdan-bir chorasi sifatida qaralmoqda.

Vaktsina nima?

Vaktsina — yuqumli kasalliklarning oldini olish yoki davolash uchun qo'llaniladigan preparat. Uning asosiy vazifasi infeksiya va viruslarga qarshi kurashishdir. Vaktsina inson tanasiga yuborilgach, immun a'zolariga ta'sir ko'rsatib, virus, bakteriya va boshqa mikroorganizmlarga qarshi himoya tanachalarini hosil qiladi. Dastlab insonlar chechak, qizamiq, qoqshol va boshqa yuqumli kasalliklardan aziyat chekkan va aksariyati hayotdan ko'z yumgan. Oradan yillar o'tib ular uchun ham turli vaktsinalar yaratildi va aholi o'rtasida bunday kasalliklar tarqalishi deyarli uchramay qo'ydi. Xuddi shunday bugun dunyo ahli uchun tahlikali bo'lgan koronavirusga qarshi turli vaktsinalar ishlab chiqilib, dunyo hamjamiyati tomonidan tan olindi. Vaktsinalar insonlarda qo'llanilishigacha bo'lgan jarayonda texnologik, klinik, biologik sinovlardan o'tgach, amaliyotga taqdim etildi.

Ishonchsizlik, qo'ruv, vahima

Ma'lumki, yurtimizda O'zbek-xitoy, AstraZeneca, Sputnik V va AQSHning Moderna vaktsinalari aholi uchun qo'llanilmoqda. Ammo emlash jarayonlari ko'ngildagidek emasligi ko'plab tibbiyot xodimlarini o'ylantiryapti. Avvaliga vaktsina tezroq yaratilishiga oshiqanlar, endi turli mish-mishlarga ishonib, emlanishni ortga surmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda "vaktsinalar inson hayoti uchun xavfli", "vaktsina orqali inson tanasiga chip yuborilib, ularni boshqarishga urinishmoqda", "ikki yilda o'lim ko'payadi", "vaktsina bepushtlikka sabab bo'ladi" kabi aql bovar qilmagan gaplar aylanmoqda. Ayanchlisi, aksariyat insonlar bu uydirmalarga ishonaypti.

Xayrullo MUSTAFOYEV, tibbiyot fanlari doktori, professor:


— Chunki dunyo bo'yicha vaktsinalar ko'p ishlab chiqildi. Bularning sanoqchilari Jahon sog'liqni saqlash tashkilotidan ro'yxatdan o'tdi, xolos. Shuning uchun ham aholida ikkilinish bor. Yurtimizda epidemiologik jarayonlar to'xtamayotganining asosiy sababi ham aholining katta qismi emlanishdan xavfsirayotganidir. Butun dunyo olimlari bu kasallikni yengishda emlanishdan boshqa chora yo'qligini

aytayotganda nega biz vaktsinalardan qo'rqamiz? Nega zamonaviy tibbiyot imkoniyatlariga ishonmaymiz? Vaktsinalarning yaratilishidan maqsad faqat va faqat insoniyatni qutqarib qolishdir. Birgina emlash yo'li bilan kasallikning oldini olish mumkin. Emlanish — bu farovon hayot. El-u xalqning salomatligi. Davlatimizning mustahkamligi ham aholi salomatligiga bog'liq. Axir qanchadan qancha insonlarda kasallik og'ir kechdi, o'lim ko'paydi. Shunday ekan, odamlardan xulosa qilish va emlanishni kechiktirmaslikni so'rgan bo'lardim. Aholi bir tan-u bir jon bo'lib kurashsa, ya'ni vaqtida emlansa, kasallanish zanjiri uziladi. Orta surayotganlar esa virus tashuvchi bo'lib emlanganlarni ham zararlayveradi. Qaysi davlat 70–75 foiz aholisini emlab bitirsa, o'sha davlatda kasallik tarqalishi keskin pasayadi. O'z vaqtda emlanmasa, albatta, kasallikka chalinish kuzatiladi. Qanday o'tishini esa hech kim bilmaydi. Vaktsina olgan inson ham virusni yuqtirishi mumkin, ammo kasallik og'ir kechmaydi, o'limga olib bormaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti vaktsinalarga bo'lgan ishonchsizlikni insoniyat uchun global tahdidlar o'ntaligiga kiritgan. Yurtimizda COVID-19 ning sog'liqni saqlash va ijtimoiy tizimlar faoliyatiga ta'sirini cheklash uchun birinchi navbatda sog'liqni saqlash va ta'lim xodimlarini emlash tadbirlari o'tkazilmoqda. Bu borada emlangan o'qituvchilarning fikrlari bilan qiziqdik.

Diloyat OBIDOVA, Farg'ona tumanidagi 12-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

— Men jamiyatning ziyoli qatlami vakili sifatida vaktsinaga shubha bilan qaradamim. Uni ishlab chiqargan tibbiyot xodimlari va mutaxassis olimlar o'zlariga yarasha tajriba va bilim, ko'nikma va malakaga ega deb o'ylayman. Vaktsina olishdan oldin o'zinni jismonan va ruhan tayyorladim. Faqat yaxshilikka umid qildim. Shuning uchunmi emlanganimdan keyin nojo'ya ta'sirlar sezmadim. Barcha ustozlar vaktsinani yaxshi fikrda qabul qilishlarini istardim. Haqiqatan ham, erangi kun uchun emlanish eng to'g'ri yo'l. Hech narsa qilmagandan ko'ra, shubha-gumonlarni ortga surib tayyor imkoniyatdan foydalanaylik. Oilamiz, farzandlarimiz, o'quvchilarimiz sog'ligi, tinchligi haqida qayg'urishimiz lozim. Ammo meni bir narsa o'ylantiryapti. Bolalarimiz nega



emlanmaypti?! Axir ularning salomatligi har narsadan ustun-ku.

Bolalar nega emlanmaydi?

Xayrullo MUSTAFOYEV, tibbiyot fanlari doktori, professor:

— 70 yildan ortiq vaqt mobaynida o'zimizni va bolalarimizni 13 xil kasallikka qarshi rejali emlab kelyapmiz. Shu jumladan, virus kasalliklari — qizamiq, gepatit, qizilcha, parotitga qarshi emlash vositalaridan foydalanamiz. Fikrimizcha, boshqa virusli kasalliklarga qarshi o'tkazilgan vaktsinasiya immunitetining ta'siri — koronavirusga chalinsa ham belgisiz yoki yengil shakllarda o'tadi. Ayrim hollarda immunitet umrbod bo'lishi, ba'zida 15–20 yilgacha cho'zilishi mumkin. Aslida viruslarning hammasi bir oilaga mansub, negizi bir, bora-bora kengayib ketgan. Bilamizki, koronavirus bolalarga yuqqanda tez sog'ayadi. Chunki ular qaytaruvchi immunitet bor. Ota-onalar "Bolalar o'rtasida kasallik ko'paydi" degan gaplarning tarqalgani uchun ham vahimaga tusha boshladi. Aslida bolalar o'rtasida kasallanish 5–7 foizni tashkil etadi! Keling, tahlil qilamiz. Bolalarni 1 yoshdan 14 yoshgacha deb olsak, 80 foiz kasallanish 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda kuzatilmoqda. Undan yuqorisida immunitet saqlab qolingan. Go'daklarda esa immunitet shakllanib ulgurmagani. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda yuqurtimz olimlari bolalarni hali emlash tarafdori emas. Chunki yot vaktsina bolaning o'suvchan tanasiga ta'sir qilishi mumkin. Ammo bolalar tashqaridan yuqtirib, virus tashuvchi bo'lib qolmoqda. Yagona chora — kichik yoshdagi bolalarni, maktab o'quvchilarini himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdir. Mana shu masalalar hisobga olinib dunyo hamjamiyati olimlari aholini 18 yoshdan emlashga qaror qildi. Hozirda Rossiya federatsiyasi olimlari bolalarni emlash haqida bosh qotirmoqda.

Qaysi vaktsina afzal?

Insonlarda chet elning mahsuloti har doim sifatli degan qarash shakllangan. Shuning uchun ham yurtimizga oxirgi kelgan va ko'plab insonlar faqat mana shu vaktsina bilan emlanishni xohlayotgan AQSHning Moderna vaktsinasiga talab ortmoqda. Aslida vaktsinalarning bir-biridan farqi bormi? Qaysi ko'proq foydali-yu, qaysisi insonga zarar keltirishi mumkin? Bu haqida bilish uchun yana mutaxassisga yuzlanamiz.

Professor X.Mustafoyevning aytishicha, hamma vaktsinalarning ta'siri bir xil. "Aslida barcha vaktsinalarning yaratilish texnologiyasi o'xshash, qo'shilgan moda va elementlari bilan farqlanadi. Ammo maqsadi — bitta. Moderna, Sputnik V, AstraZenica bo'ladi, barchasi kafolatlangan, hammasi ham insonda immunitet hosil qiladi. O'zbek-xitoy vaktsinasi Xitoy olimlari bilan birgalikda o'zbek xalqiga mos tarzda ishlab chiqildi. Menga vaktsinaning biror turining dastlabki dozasi o'lgach, ikkinchisini olmasa nima bo'ladi, deya savollar berishmoqda. Shu masalaga ham to'xtalmoqchiman. Vaktsinani yetkazib berishda biroq tanqisliklar kuzatilmoqda. Bunga tabiiy qarashni so'rgan bo'lardim. Dunyoda bo'layotgan turli vaziyatlar, iqlim o'zgarishlari va boshqalar ishlab chiqarishga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu sabab vaktsina ishlab chiqaradigan korxon va zavodlar vaqtida talablarni bajara olmayapti. Ammo bu vaqtinchalik holat. JSS'ning bildirishicha, vaktsinaning bir dozasi insonda uch oygacha immunitet hosil qiladi. Hatto 6 oygacha antitanachalar saqlanadi. Shunday ekan xavotirga o'rin yo'q. Katta uzilish bo'lmaydi. Rossiya va Yevropada ishlab chiqarilgan vaktsinalarni aralashmagan ma'qul. Biroq olimlarda Yevropada chiqqan AstraZenica, Moderna, Pfizer bir-birini qoplashi mumkin degan qarashlar bor. Ammo bu JSS' tomonidan o'rganilmoqda. Ma'lumot olishimiz bilan aholiga yetkazamiz.

Vaktsinalar atrofida har xil gaplar azaldan bo'lgan. Papilloma virusiga qarshi emlanish boshlanganda ota-onalar o'rtasida "Vaktsina farzandsizlikka olib keladi" degan gaplar tarqalgan edi. Ammo hammasi yolg'on ekan o'z isbotini topdi. Koronavirus vaktsinasi ayollarga salbiy ta'sir qilishi haqidagi gaplar ham noto'g'ri.

JSS'ning immunizatsiya bo'limi boshlig'i Ketrin O'Braen "Biz qilgan vaktsinalar bepushtlikka olib kelmaydi. Bu kabi turli xil vaktsinalar atrofida tarqalgan mish-mishlar to'g'ri emas. Bepushtlikka olib keladigan vaktsina yo'q", deydi.

Malayziyada axborot xavfsizligi va kompyuter texnologiyalari mutaxassisi bo'lib ishlayotgan o'zbekistonlik Anvar Narzullayev odamlar ongini boshqaradigan darajadagi nanotexnologiyalar hali ixtiro qilinmagani, bunday (avtonom) chiplar mavjud emasligi, insonlarni boshqarish uchun chip kerak emasligi, uni boshqarish va kuzatish uchun gajetlar kifoya qilishini ta'kidlaydi.

Bugungi pandemiya sharoitida mish-mish, uydirma va yolg'onlarga ishonib ish tutish yaramaydi. O'zimiz va o'zgalar salomatligi uchun emlanaylik!

Niginabonu SHUKUROVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Taʼlimdagi islohotlar

Bir maktabda ikki til

Gʻayri tilni saʼy qiling bilgali yoshlar –
Kim, ilm-u hunarlar bilanki

ondin ayondur...

Maʼrifatparvar shoir Avaz Oʻtar bundan bir asr muqaddam yozgan mazkur misralar bugun ham dolzarbligicha qolmoqda. Zero, til oʻrganish, oʻzga ellar tili, madaniyati, tarixiga eʼtibor qaratish har bir millat taraqqiyotida muhim oʻrin tutadi.

Oʻzbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, turli sohalarda xalqaro hamkorlik ishlari kengayayotgani ham oʻz-oʻzidan xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Joriy yilning 6-may kuni davlatimiz rahbari boshchiligida chet tillarni oʻqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida tizimdagi muammolar atroflicha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi.

Viloyatimizda bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmogʻda, – deydi Fargʻona viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi boʻlim boshligʻi Abdujabbor Gʻaniyev. – Jumladan, tuman-shaharlarning har biridan bitta maktab tanlab olinib, xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab maqomi berilmogʻda. Ularda 146 nafar chet tili oʻqituvchisi faoliyat olib boradi, shundan 57 nafari oliy va birinchi toifali oʻqituvchilar boʻlsa, milliy va xalqaro sertifikatga ega boʻlganlar 24 nafar. Ushbu maktablarda xorijda chop etilgan kitob va darsliklar, ilgʻor oʻquv dasturlari hamda metodikalaridan keng foydalan-



nish, fanlarni chet tilida oʻqitish yoʻlga qoʻyilishi rejalashtirilmogʻda. Bu orqali xorijiy tillarni oʻqitish sifati oʻsishiga erishish mumkin.

Fargʻona shahridagi 3-umumtaʼlim maktabida oʻquvchilarga ikkita chet tili – ingliz va fransuz tillari oʻqitiladi. Maktabda uzoq yillar davomida toʻplangan boy tajriba, shuningdek, yosh kadrlarning intiluvchanligi natijasida xorijiy tillarni oʻqitishda yuqori samaradorlikka erishib kelinmogʻda. Bu borada maktabda uzoq yillardan buyon fidokorona mehnat qilib kelayotgan Xalq taʼlimi aʼlochisi Galina Xoʻjayevaning hisssasi katta. U koʻplab iqtidorli shogirdlar, xorijiy til mutaxassislarning sevimli ustozlari.

Iqbolxon Nazarova Fransiyaning Oʻzbekistondagi elchixonasi taklifi bilan 2012-yili mazkur davlatga metodika va til oʻrganish stajirovkasiga borishga muayassar boʻlgan. Oʻshanda Fransiya taʼlim tizimining oʻziga xos jihatlari – internet va axborot-kommunikatsiya jihozlarining taʼlimdagi oʻrni beqiyosligi uning havasini keltirgan edi.

Shuni taʼkidlash kerakki, oliy taʼlim tizimida mutaxassislar tayyorlash masalasiga alohida eʼtibor qaratiladi. Yangi oʻquv yilidan boshlab, chet tillari boʻyicha qabul kvotalari soni 2 baravar koʻpaytirilib, 16 mingtaga yetkazilishi, davlat granti esa 3 baravarga oshirilishi koʻzda tutilgan.

– Maktabimizda 1600 nafar oʻquvchi taʼlim oladi, – deydi oʻquv ishlari boʻyicha direktor oʻrinbosari Umidaxon Yunusova. – Oliy oʻquv yurtlari chet tili yoʻnalishiga qabul kvotalarining oshirilishi bitiruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Jadal surʼatda rivojlanib, oʻzgarib borayotgan zamonaviy dunyoda ingliz tilini bilish allaqachon kundalik zaruratga aylanib ulgurgan.

Sohadagi oʻzgarishlardan xabardor boʻlib borishlari, yangi adabiyot va qoʻllanmalar sotib olishlari uchun har bir chet tili oʻqituvchisiga budjetdan 1 million soʻmdan mablagʻ ajratilishi belgilangani zimmamizga ulkan masʼuliyat ham yuklaydi, – deydi ingliz tili oʻqituvchisi Nilufar Nosirova. – Hozir chet tillarini oʻqitishning innovatsion usullarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida Amerika Kengashi va Xalq taʼlimi vazirligi hamkorligida ishlab chiqilgan ESN (English Speaking Nation) loyihasida tahsil olmoqdaman.

Yurtimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, xorijning mashhur universitetlarida tahsil olayotganlar soni kun sayin ortib bormogʻda. Ayni paytda mazkur maktabni bitirgan Javohir Mahkamov, Muzaffar Abduhatov va Abbosbek Moʻminov Koreyaning INHA universiteti xalqaro biznes va savdo yoʻnalishida, Sardorbek Mirzaahmedov esa AQShning Webster universitetida oʻqimoqda. Bu talabalar-dan ustozlarining umidi katta.

Hayotjon BOYBOBOYEV

Tirikchilik farzand tarbiyasidan ustunmi?

Kun tartibida doim turishi kerak boʻlgan mavzu, inson tafakkuri, xulqi, odob-axloqini tanazzuldan saqlab turadigan eng samarali vosita, bu – tarbiya, maʼnaviyat va maʼrifatdir. Aynan shu uch omil toʻgʻri yoʻlga qoʻyilgan muhitda farzandlar tarbiyasi, oqil va bilimli boʻlib voyaga yetadi, oila mustahkam, jamiyat ibratli boʻladi.

Xalqimiz qadimdan taʼlim-tarbiya masalasiga juda katta eʼtibor qaratibgina qolmay, uni asrlar davomida eʼzozlab qadriyat darajasida shakllantirgan.

Xalq orasida “Hech bir otana farzandiga yomonlik tilamaydi, kelajakda yaxshi xulqli, kasb-hunarli, el havas qiladigan insonlar boʻlib yetishishini istaydi”, degan ibratli gap bor. Maqsad, istak juda yaxshi, lekin uni amalga oshirish uchun amaliy harakatlarni baʼzan yoddan chiqarib qoʻyamiz. Tirikchilik, uy-roʻzgʻor tashvishlarini bahona qilib, taʼlim-tarbiyani “oʻz yoʻliga boʻlaveradi” deya ish tutamiz.

Bola maʼlum davr va muhitda shakllanib boʻladi. Agar uning feʼl-atvori, oʻy-fikrida salbiy jihatlarni koʻrsak

oʻksinamiz. Nari borsa ikki ogʻiz doʻq-poʻpisa bilan nasihat qilgan boʻlamiz. Lekin vaqt ancha oʻtib ketgan boʻlsa-chi?

Alloma Imom Gʻazzoliy shunday deydi: “Bolalar otanalariga berilgan omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilisa, egiladi. Agar yaxshilikka oʻrgatilsa, shu bilan oʻsadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi...”

Albatta, hayotda yanglish qadamlar, adashishlar, xatolar boʻladi. Lekin bola tafakkuriga bolalikdan toʻgʻri tarbiya, maʼrifiy gʻoyalar singdirilgan boʻlsa, u albatta bu xatolarni tezda tuzatib oladi, kelajakda uni takrorlamaslikka intiladi.

Xalqimizning necha-necha asrlar osha shakllanib zavol topmagan hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan gʻoyalar yosh avlod tarbiyasining asosini tashkil etmogʻi kerak. Sodaroq aytganda, har bir insonning yurish-turishi, oilasida ibratli muhit yaratishi, farzandlarining ana shu muhitda ulgʻayib voyaga yetishi, avvalo ularning maʼnaviy qiyofasiga, oʻy-fikri tozaligiga bogʻliq emasmi!?

Davlatimiz rahbari joriy yilning 19-yanvar kuni maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida shunday taʼkidlab oʻtgan edi: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot boʻlsa, uning joni va ruhi maʼnaviyatdir. Biz yangi Oʻzbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan

kuchli maʼnaviyat”.

Biz yuqorida soʻz yuritgan tarbiya maʼnaviyatning ajralmas qismi. Maʼnaviyatni, tarbiyani qadriyat deb bilar ekanmiz, ularni turli tashqi taʼsirlardan himoya qilmogʻimiz ham kerak. Aytaylik, tafakkuri, muomalasi, oʻy-fikrlari ibratli ota-ona farzandlariga yaxshi tarbiya beradi. Lekin bolalar koʻcha-koʻy, mahalla, maktab va umuman atrofdagi insonlar hayotini koʻradi, ular bilan ham munosabatga kirishadi, taʼsirlanadi. Qolaversa, globalashuv davrida internet, qoʻl telefonlari kabi koʻplab aloqa vositalarida sanoqsiz lavhalar, videorolik va shu kabilar tinimsiz berib borilmogʻda. U yerdagi salbiy axborotlar hatto tasavvur va fikr doirasi haminqadar kattalar bilan birga hali yosh bolalarga kuchli taʼsir koʻrsatishi tabiiy.

Tasavvur qiling, hali hayot tajribasi yoʻq, tahlil qila olmaydigan bolalar ongiga bular qanday taʼsir koʻrsatadi? Ularning telefon yoki internetdan foydalanish jarayonini doim

nazorat qilish imkoni boʻlmaydi. “Olmaning boʻshini qurt yeydi” deganlaridek, bilimsiz kishining koʻngli xurofotga moyil boʻladi. Shu oʻrinda oila va maktabdagi taʼlim-tarbiya eng kuchli qurol boʻlib xizmat qila oladi. Tafakkuri, bilimi ezgulikka yoʻgʻrilgan bolalar esa turli salbiy voqea-hodisalar, axborotlar taʼsiriga tushib qolmaydi. Oqni qoradan ajrata biladi.


Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning shunday hikmatli soʻzlari bor: “Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki soʻz qalbdan kelib chiqadi”. Yaʼni, tarbiyada avvalo tafakkurni, ongni tarbiyalamoq kerak. Koʻngli ezgulik bulogʻidan toʻyingan, yaxshi amallarga yoʻnaltirilgan avlodlar kelajagimiz tayanchi boʻlib qolaveradi.

Uljalom ISLOMOVA,
Jaroʻrgʻon tumanidagi
17-maktab direktorining
oʻquv ishlari boʻyicha
oʻrinbosari

Virtual ta'lim

O'zbekistonda milliy virtual 3D universtetni yaratish texnologiyasi va bosqichlari

Axborot texnologiyalari rivojlangani sari virtual ta'lim tarafdorlarining soni ham ortib bormoqda. Xususan, AQSH, Angliya, Germaniya, Koreya, Yaponiya kabi davlatlar OTMlarida. Buning sababi shuki, ta'lim muassasalarida an'anaviy usulda bilim olishga nisbatan masofadan ta'lim olish ham qulay, ham arzon.



Rivojlangan mamlakatlar o'zlarining uch o'lchovli konstruktiv milliy virtual universitet platformalarini yaratgan. Misol tariqasida Rossiya, Amerika, Britaniya, Germaniya, Finlandiya milliy virtual universitet platformalarini keltirish mumkin. Hozirgi kunda Respublikamizda 3D texnologiyalar asosida axborot texnologiyalari bo'yicha umumlashtirilgan milliy virtual universitet tizimini geometrik modellashtirilgan holda taqdim etadigan loyihalar bajarilmagan.

3D universtet tizimining vazifasi respublikamizdagi barcha OTMlar, xalq ta'limi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ishlab chiqarish, gumanitar va boshqa sohalarida professor-o'qituvchi va talabalarni masofadan bog'lash, virtual elektron formatdagi o'quv kontentlarini namoyish etish, tajriba va bilim almashish uchun noyob raqamli milliy platformani taqdim etishdan iborat. U ta'lim oluvchilarning faolligini oshiradi, o'quv jarayoni yanada yorqinroq va qiziqarli o'tishiga yordam beradi.

Ishlab chiqilgan milliy virtual 3D universitet tizimi internet tarmog'iga joylashtiriladi va O'zbekistonning OTMlariga virtual tashrif buyurish, virtual o'quv jarayonida qatnashish va virtual mashg'ulotlarda bilim darajasini sinab ko'rishini ta'minlaydi.

Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo'lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin. Virtual platforma yaratishning birinchi bosqichida yakuniy natija sifatida ishlab chiqilgan dasturiy majmua 10 ga yaqin O'zbekiston hududidagi ta'lim muassasalari virtual 3D obyektlarining geometrik modellarini o'z ichiga oladi va tashrif buyuruvchilar uchun AR va

VR texnologiyalari orqali virtual interaktiv kontent taqdim etiladi. O'quv interaktiv 3D kontent tarixiy obidalar haqidagi barcha ma'lumotlarni qamrab olib, qiziquvchilar uchun bosqichma-bosqich 3D yozuv ma'lumotlari taqdim etib boriladi.

Qachonki maxsus virtual dasturiy vositalar va virtual 3D kontent menejeri mavjud bo'lsa, virtual borliq bilim oluvchilar qo'lidagi kuchli ish quroliga aylanadi.

Virtual 3D universitet tizimi asosida milliy ta'limning afzal jihatlari saqlagan holda, jahondagi ilg'or ta'lim muassasalaridagi ta'lim texnologiyalari asosidagi konusli ta'lim (the cone of learning) modeli samarali usullardan biridir.

Konusli ta'lim tushunchasini Edgar Deyl birinchi bo'lib fanga kiritgan. Uning xulosalariga ko'ra, bu vizual usulda ta'lim olish metaformasidir. Asosiy maqsadi vizual o'qitish uslubini boshqa o'qitish uslubiga solishtirish emas, aksincha, faol va passiv ta'lim o'rtasidagi farqni ko'rsatishga qaratilgan. Biz o'qiganimizda 10 foiz, eshitganimizda 20 foiz, ko'rganimizda 30 foiz, ko'rib va eshitganimizda 50 foiz o'zlashtirish ta'minlanadi. Aytib bersak 70 foiz, o'qiganimizni aytib berib va amalda bajar-sak 90 foiz bilim o'zlashtirilgan ekan.

Virtual o'qitish muhiti (VLE) o'quv

3D universtet tizimining vazifasi Respublikamizdagi barcha OTMlar, xalq ta'limi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ishlab chiqarish, gumanitar va boshqa sohalarida professor-o'qituvchi va talabalarni masofadan bog'lash, virtual elektron formatdagi o'quv kontentlarini namoyish etish, tajriba va bilim almashish uchun noyob raqamli milliy platformani taqdim etishdan iborat. U ta'lim oluvchilarning faolligini oshiradi, o'quv jarayoni yanada yorqinroq va qiziqarli o'tishiga yordam beradi.

kontent taqsimoti va undan o'quv jarayonida foydalanishga javob beradi. Bunda o'qituvchi bilan o'zaro munosabatda sinxron va asinxron muloqotni qo'llab-quvvatlash, aktiv va passiv o'quv faoliyatini takomillashtirish muhim o'rin egallaydi.

Virtual ta'lim tushunchasi paydo bo'lganidan buyon bir nechta rivojlanish bosqichidan o'tgan (elektron ta'lim, internet ta'limi, kompyuterli ta'lim, vebga yo'naltirilgan ta'lim va hozirgi kunda virtual ta'lim). Ta'limga aloqador virtual reallik (VR) platformasi eng keng tarqalib bormoqda. VRdagi virtual o'quv auditoriya xonalari haqiqiy hayotdagi o'quv xonasidek, o'qituvchilar va talabalar dars mashg'ulotida uch o'lchovli personaj (avatar) bilan qatnashishadi, virtual mashg'ulotlar esa an'anaviy hayotiy mashg'ulotlar ko'rinishida bo'ladi. Elektron ta'lim texnologiyalaridan butkul farq qiladi, unda o'qituvchilar va talabalar ta'limning "kompyuter" shakllariga moslashadilar: matnli yoki vebinarli. Boshqa tomondan, virtuallik odatdagi mashg'ulot imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi, masalan: sizga kasalxonada, bankda, sudda dars o'tish imkonini beradi. Buning natijasida chet tili va boshqa fanlarga tegishli darslarni Toj mahal, Registon, Mars, Oy yoki Parijda o'tkazishingiz mumkin. VRning noyob imkoniyatlari dunyodagi universitet va kompaniyalarda qo'llanishi tez sur'atlarda o'sishiga turki bo'ldi.

Milliy virtual universitet muhitlari 3D obyektlarni, xususan, eksteryer, interyer, personaj (avatar) larning dizayni va geometrik modellarini yaratish hamda ularning kompyuterli algoritmlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Virtual xaritada har bir ta'lim muassasasi 3D modellarining loyiha maketi kiritilib, boshqa ta'lim muassasasiga vaqt va zamon oraliqida bir makondan ikkinchi makonga teleportatsiya obyekti yordamida o'tish mumkin.

Bugungi kunda xorij mamlakatlarida virtual ta'limni baholab boradigan bir qator tizimlar mavjud (SecondLife.com, vAcademia.com, Virbela.org, IMVU.com, Classvr.com, Sansar va boshqalar).

Rossiya dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan vAcademia platfor-

masi uch o'lchovli virtual ta'lim muhitidir. VRdagi virtual o'quv auditoriya xonalari haqiqiy hayotdagi o'quv xonasidek, o'qituvchilar va talabalar dars mashg'ulotida uch o'lchovli personaj (avatar) bilan qatnashishadi, virtual mashg'ulotlar esa an'anaviy hayotiy mashg'ulotlar ko'rinishida bo'ladi. Darslarni 3D yozib olish qobiliyatiga ega. Natijada, o'tkazilgan sinxron darslarning aniq nusxasi bo'lgan 3D yozuvlar olinadi. Ushbu yozib olingan mashg'ulotlarda odatdagi darslar sifatida birma-bir yoki guruh bo'lib kirib vizual qatnashish, sinxron mashg'ulotlardan farqli o'laroq, yozib olingan darslarni tahrirlash mumkin.

Virbela — bugungi kunda tashkilotlar, uzoqdan turib ishlaydigan ishchilar va o'quvchilar duch keladigan real muammolarni hal qilishning virtual yechimini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan.

Unda IMVU-Ventures, AllegisCyber Capital, Bridgescale Partners va Best Buy Capital kompaniyalarining investorlari tomonidan 2004-yilda asos solingan. Undan 3D avatarlar yordamida yangi odamlar bilan tanishish, suhbatlashish va o'yin o'ynash uchun foydalanadilar. IMVU 2014-yilda to'rt milliondan ortiq faol foydalanuvchiga ega edi. Hozirgi kunda faol foydalanuvchilar soni 6 millionni tashkil etadi va saytda 40 milliondan ortiq mahsulotning eng katta virtual tovar katalogi mavjud.

ClassVR — bu maktablar uchun maxsus ishlab chiqilgan, mustaqil minigamituralar, intuitiv imo-ishoralarni boshqarish, ulkan kontent kutubxonasi va o'qituvchilarni boshqarish portali bilan jihozlangan dunyodagi birinchi to'liq virtual va kengaytirilgan to'plam.

Hozirgi kunda an'anaviy ta'limdagi o'quv mashg'ulotlarida 1 para dars uchun 80 daqiqa vaqt ajratilgan. Virtual muhit orqali o'quv mashg'ulotlari olib borilsa, virtual 3D obyektlar, virtual o'quv materiallari, virtual stendlar orqali talabalarga 80 daqiqada berilgan materiallarni 40-50 daqiqada tushuntirish mumkin. Buning natijasida dars mashg'ulotlariga ketadigan vaqtni 2 barobar kamaytirishga erishiladi.

An'anaviy ta'limda dars mashg'ulotlari professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilganda dars mashg'uloti yakunida 30 o'quvchidan 20 nafar fanni o'zlashtiradi. Agarda professor-o'qituvchilar tomonidan virtual 3D ta'lim muhiti orqali dars berilsa, 30 o'quvchidan 27 nafari o'zlashtirishi aniqlandi. Buning natijasida o'zlashtirish ko'rsatkichini 40% oshirishga erishiladi.

O'qituvchi minbari

O'qituvchilarga metodxonalar kerak!

yo'qsa kelin, ona, bekalikdan ortsak, ertangi darsga tayyorgarlik ko'ramiz

Ijodkorning ijod qilishi uchun tinch va yaxshi sharoit zarur. O'qituvchi ham ijodkor. Darsga ijodkorlik bilan yondashgan muallim samaraga erishadi. Ammo uning darsga tayyorlanishi uchun sharoit bormi?



Ertaga olti soat darsim bor, hech bo'lmaganda ikki soat tayyorgarlik ko'rishim kerak. Ishdan kelib non yoddim, kir yuvdim, osh-ovqat, bolalarning darslari, xullas, uy-ro'zg'or yumushlari tugamadi. Kechki ovqatdan so'ng idish-tovoqlarni yuvib bo'lgunimcha soat 21:00 bo'ldi.

Dars qilish uchun o'tirdim. O'quv rejalarimni ko'rib chiqdim: 8-sinfda adabiyotdan "Muhammad Yusufning she'riyati" mavzusi, 9-sinfda ona tilidan "Ergashgan qo'shma gaplar", adabiyotdan esa "Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi"ni o'tishim kerak ekan. Hamma mavzular uchun ko'rgazmalar tayyorlashim kerak. O'yab qoldim, "o'tgan yili bir kasbdoshim "Ergashgan qo'shma gaplar" mavzusi uchun juda ajoyib

ko'rgazma tayyorlagan edi, so'rasam berib turarmikan?"

Azbaroyi darsim qiziqroq chiqishini o'yab, kech soat 22:30 bo'lsa ham telefon qildim:

— Alo, Dildora, bezovta qilmadimmi? Yaxshimisiz?

— Assalomu alaykum, opa, o'z yaxshimi? Nega bezovta qilasiz, dars qilib o'tiribman. Nima gap? — deya javob berdi u.

— Dildora, o'tgan yili "Ergashgan qo'shma gaplar" mavzusida juda ajoyib ko'rgazma tayyorlagan edingiz, shuni berib turolmaysizmi? Ertaga shu mavzuni o'tishim kerak edi. O'zim tayyorlashim uchun hech vaqtim bo'lmadi-da, aylanay".

— Eh, opajonim, siz uchun jonim fido. Ammo bilasizku, bu maktabni,

o'sha kungi darsim tugab ko'rgazmalarimni yig'ishtirib, o'zimning sinfim o'qiydigan kimyo xonasidagi ilgichlarga ilib, o'quvchilarimga "qaranglar, hech kim tegmasin", deb ketsam, kimyo ustozini kelib, "bularni bu yerga kim qo'ydi, ona tili xonasiga ilib kelinglar", debdi. Bolalar olib borib ona tili xonasiga qo'yib kelibdi. U yerdagi ko'rgazmalarni bilasiz, o'zi ustma-ust bo'lib yotibdi, meniki qo'shilib, mix uzilib ketibdi, ikkinchi smenadagi 3-sinf o'quvchilari ularni rosa o'ynabdi, qancha qiynalib yasangan ko'rgazmalarim, mehmatim bir pul bo'libdi, opa. Uyg'a olib kelib tashlaganman, shu holicha yotibdi, ertarog' aytganingizda, tayyorlab qo'yarmidim. Uzr, opajon, yordam qilolmadim-da.

— Xo'p mayli, o'zim biron narsa qilarmen.

Xullas, o'zim mavzular yuzasidan portretlar, rasmlar, tarqatmalar tayyorladim. Kech soat 1:00 bo'ldi.

Ertalab soat 8:00 ga maktabga yetib bordim. Ko'rgazmalarimni o'qituvchilar xonasidagi stollar ustiga qo'yib, navbatdagi dars uchun keraklisini olib darsga kirdim.

Uchinchi soat darsim 9-"A" sinfida. Shu payt maktabga komissiya kelib qolsa deng. Aynan shu darsim uchun ko'rgazmam yo'q. Yo'q, hech gap bo'lmadi, mavzuga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan edim. Ammo bir og'iz "Nega darsda bironta ko'rgazmangiz yo'q, tayyorlamadingizmi?" degan gapi men uchun, "Darsingiz yaxshi chiqmadi, tayyorlanmagan-siz", degandek ta'sir qildi.

Dars — o'qituvchining ijodiy sahvasi. Mana shu sahnada o'quvchining e'tiborini qozona olmadikmi, bu darsdan hech qanday natija yo'q. Shunday ekan, darsga tayyorgarlik jarayoniga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Har bir

dars uchun alohida ijod qilinishi zarur, ijod uchun esa yuqorida aytganimizdek sharoit va tinch joy kerak. O'qituvchilarning asosiy qismi ayollar. Uyda beka, kelin, buvi, yanga, xullas, ular uyda ham asosiy rollarda xizmat qiladi. "Dars qilishim kerak", degan gapi oiladagilar uchun hech qanday ahamiyatga ega emas, avvalo, uy ishini bajarib berish kerak. Endi nima qiladi, DARSdek muqaddas ish "yo'lga" bajariladi.

Agar maktabda har bir fan doirasida o'qituvchilar uchun metodxonasi ajratilganda edi, maktabda bir fandan besh o'qituvchi bo'lsa, har birining tayyorlagan ko'rgazmalari o'sha xonada hech ziyon-siz saqlanar va bundan hamma o'qituvchilar darsida foydalanar edi. O'qituvchilar bir-biri bilan metod almashar, darsini uyiga ko'tarib yurmay shu xonada tayyorlab, uyiga xotirjam ketar edi. Ertangi kun dars jarayonlari ham chiroyli o'tar, hatto bu xonada o'quvchi bilan ham shug'ullanish qulay bo'lar edi.

Hech bir sohada (juda shoshilinch bo'lmasa agar) ish uyga olib borilmaydi, ishxonada qoladi, ertangi kunda davom ettirilaveradi, faqat o'qituvchigina daftar-kitobini bir dunyo qilib uyga ko'tarib keladi, hamma javonlarda uning qog'ozlari, daftar va darsliklari. Ertasiga ularni yana ko'tarib maktabga boradi. O'qituvchi ham ishini ishxonada tugallab, uyiga xotirjam kelosa qaniydi.

30 yildan buyon pedagog bo'lib ishlab kelayotgan bo'lsam, har bir qanoatlanmagan darslarim chog'ida maktabda fanlar uchun metodxonalar bo'lsa edi, deb orzu qilganman.

Mukammal dars o'tish uchun, mukammal sharoit kerak.

Gulbahor BERDIYEVA,
Kitob tumanidagi
16-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Ta'kid

Maktablarda "Yil o'qituvchisi" tanlovi o'tkazilsa

Mehnatga yarasha rag'bat insonni yanada yuqori marralar sari undaydi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida bu juda muhim. Yangi o'quv yili oldidan o'quvchilar va o'qituvchilarni rag'batlantirish borasidagi ba'zi takliflarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Maktablarda hafta, oy, yil bilimdoni tanlovlarini o'quvchilar va sinflar miqyosida o'tkazish kerak. Eng bilimdon o'quvchi qiz va yigitlarning 1-o'ringacha 5-o'ringacha, eng bilimdon sinflarning esa 1-o'ringacha 3-o'ringacha bo'lganlari tanlab olinib, taqdirlanishi lozim.

Bunda o'quvchilarning haftalik davomati, xulqi, darslarni a'lo baholarga o'zlashtirgani, bir oyda kamida 2 ta badiiy kitob o'qiganini hisobga olinadi. Hafta(oy, yil) ning bilimdon sinfi ham xuddi shunday aniqlanadi. Faqat bilim-

don o'quvchi bilan bilimdon sinf o'rtasidagi farq o'qilgan badiiy kitoblarni sonida bo'ladi. Agar sinfda 30 ta bola o'qisa, shunda bir oyda sinf bo'yicha kamida 10 ta badiiy kitob o'qish kerak bo'ladi. Badiiy kitob o'qishda sinf jamoasi bir kitobni bir sinfdan hamma o'qib chiqqan bo'lsa ham hisobga olinadi. Bularni aniqlash uchun maktabdagi direktor o'rinbosarlari va ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi, maktab psixologi, o'qituvchilar hamda sinf rahbarlari jalb etiladi.

Shu o'rinda hamma ish-

ning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi ta'lim olayotgan o'quvchilar yoki sinflarning ham eng qo'lloqlari bo'ladi. Shu sababli hafta(oy,yil)ning eng davomati past, xulqi, bilim olishi qoniqarli o'quvchilar yoki sinflar reytingi tuzilib, ular bilan ko'proq mashg'ulotlar olib borish yo'lga qo'yilsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

O'quvchilar qatori ustozlar orasida ham maktab miqyosida "Yil o'qituvchisi" tanlovi o'tkazilishi kerak. Tanlovning shartlari quyidagicha bo'ladi:

— yil davomida o'qituvchi dars bergan sinf o'quvchilari uning fani bo'yicha ijobiy baholansa, darslarida faol ishtirok etsa;

— o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnomada 86 foizdan ko'p ijobiy baho olsa, mutaxassisli-



gi bo'yicha maktab komissiyasi taqdim qiladigan test sinovidan kamida 80 ball to'plasa;

— o'tgan to'garak mashg'ulotlari ijobiy baho bersa, tuman, shahar, tanlovlarida o'zi yoki o'quvchisi 65 balldan yuqori ball olsa;

— o'qituvchi yil davomida sababsiz dars qoldirmagan bo'lsa, maktabning yil o'qituvchisiga aylanadi.

G'olib o'qituvchilar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi

hamda yil davomida maktabning yil ustozlari doskasi shakllantirilib, ularning rasmlari yangi o'quv yili tugaguncha ilib qo'yiladi. G'olib chiqqan o'qituvchilarga yangi o'quv yili davomida qo'shimcha ustama pullari to'lanadi.

Hurmatli hamkasblar, ushbu tanlovlarni maktabingizda joriy etib ko'ring. O'ylaymanki, yomon natija bermaydi.

Ixtiyor TOJIYEV,
Dehqonobod tumanidagi
8-maktab o'qituvchisi

Tajriba

Kitobxonlikning zamonaviy usullari

(Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi misolida)

Kitobxonlikni targ'ib qilish bugungi kunda murakkab masala. Bunga juda katta mehnat va ilm talab etiladi.

Agar kutubxona xodimining ilmiy salohiyati yuqori va izlanuvchan bo'lsa, turli loyiha va qo'llanmalar asosida istalgan kitobxonni kitob o'qishga qiziqitira oladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va uning jamiyatga ta'siri natijasida Axborot-kutubxona mutaxassislari ham aholining turli qatlamlarini o'rganib chiqishga va shu asosida faoliyatiga qo'shimcha yuklamalar qo'shishga majbur bo'lmoqda. Mutaxassis shunday harakatlarni amalga oshirmas ekan, unda kitobxonlikni targ'ib qilishning an'anaviy usullaridan foydalanish qisman foyda keltirmasligi mumkin.

Yoshlar asosiy vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflagan bir vaqtda, kutubxonada xodimi turli mavzudagi axborotlarni grafik ishlanmalar asosida yoshlar faol bo'lgan tarmoqlar orqali yetkaza olsa, nafaqat foydalanuvchi, balki uning ijtimoiy tarmoqdagi do'stlarini jalb qila olishi mumkin.

Toshkent davlat yuridik univer-

siteti Axborot-resurs markazi xodimlari ham zamon bilan hamohang tarzda yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ommaviy kitob o'qishni targ'ib qilish singari vazifalarni turli dasturlar, grafik ishlanmalar bilan ishlovchi turli internet sahifalardan samarali foydalangan holda bajarmoqda. Shular jumlasiga kutubxonada tashkil qilingan motivatsion ruhdagi "Siz uchun foydali" loyihasi, turli sanalarga bag'ishlangan "Muhim sanalar" kasbiy yetuklikka erishgan va boshqalarga o'rnak bo'luvchi taniqli shaxslar hayoti va ijodiga oid "Professional" loyihalarini misol qilishimiz mumkin.

"Siz uchun foydali" loyihasing asosiy maqsadi – foydalanuvchilarga maqsadga erishish yo'llari, kitob o'qishning naqadar muhimligi va ahamiyatligi, kamolotga erishishning natijalari haqida mutafakkirlarning insonni ruhlantiruvchi hikmatli so'zlariga tayan-gan va foydalangan holda kitobxonlarga masofadan uzatiladi. Biroz murakkab va ijobiy ahamiyatga ega ushbu loyiha keng kitobxonlarni jalb qila oldi va ax-

borotlarni kitobxonlarimiz ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z yaqinlariga ulashmoq-dalar.

"Muhim sanalar" tadbiri esa xalqaro bayramlar, taniqli shaxslarning taval-lud ayyomlari, xorij mamlakatlarining mustaqillik va konstitutsiya kunlariga bag'ishlab keng va ijodiy yondashuv asosida tayyorlanadi. Ushbu axborot mahsuloti ham boshqa ijtimoiy tarmoqlarda turli foydalanuvchilar tomonidan tarqatiladi.

"Professional" loyihasi esa ma'lum qiyinchiliklarga qaramay tinmay bilim olib juda katta marralarga yetgan turli kasb vakillarining hayoti va ijodi haqida so'z yuritadi. Bu kitobxonlar yanada ko'proq bilim olishi, kitob o'qishi va olgan bilimlarini boshqalar bilan ulashishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu axborotlarni tayyorlashda turli axborot uzatuvchi sahifalar bilan bir qatorda mutaxassislariga "Adobe Photo-shop", "Movavi Video Editor", "Canva Remove" singari grafik dizayn bilan ishlovchi dasturlar va veb sahifalar yordam bermoqda.

Universitet axborot-resurs marka-

zi xodimlari pandemiya holatidan kelib chiqib aholini kasallik haqida axborotlar, infografikalar, video va foto mahsulotlar bilan ta'minlamoqda. Buning natijasi o'laroq chet tilidagi axborotlarni kitobxonlar o'zbek tilida va grafik ishlanmalar asosida oson qabul qilmoqda.

Umuman olganda, foydalanuvchilar bunday sifatli va noyob axborotlar, motivatsion va tavsiyaviy xarakterga ega ma'lumotlarga qiziqish bildirmoqda. Buning natijasida foydalanuvchilar soni oshishi bilan birga talab ham ortib bormoqda.

Ma'lumki, inson ong ostini uyg'otish uning aqliy salohiyatini oshirishga urinish hisoblanadi. Kutubxonada xodimlari ham ayni shu masalaga e'tibor qaratgan holda axborot tayyorlab, uzatmoqdalar. Natijada bu nafaqat universitet xodimlari, talabalarini, balki boshqa universitet xodim va talabalarini, maktab o'qituvchilari, adliya sohasi vakillari hamda turli kasb vakillarining qiziqishlariga sababchi bo'lyapti.

Nozimjon YUSUPOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Axborot-resurs markazi axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi mutaxassis,
3-darajali yurist

Universitetlar: pandemiya va kelajak

Pandemiya boshlanishi bilan dunyodagi ta'lim tizimi qator qiyinchiliklarga duch keldi. Bir necha hafta ichida sayyoramiz bo'ylab talabalarning 90 foizi masofaviy yoki aralash ta'limga o'tishga majbur bo'ldi.

Universitetlarimiz dunyoning ko'plab mamlakatlari-dagi singari, o'z ishlarini hech bo'lmaganda cheklangan miqyosda davom ettirishga qaror qildi. Ushbu holat oliy ta'lim tizimi uchun haqiqiy stressga aylandi.

Pandemiya oldidan universitetlarga tanish bo'lgan barcha jarayonlar unchalik samarali ishlamagan bo'lsa ham tizim umuman olganda barqaror edi. Darslarning ko'p qismi o'z vaqtda o'tkazildi va boshqa semestrlarga qoldirilmadi. Millionlab talabalar va o'n minglab xodimlarning masofaviy ish formatiga o'tishi koronavirus pandemiyasi tarqalishiga qarshi choralar samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Talabalar o'qituvchilar bilan o'zaro aloqada bo'lishdi. O'quv vazifalari va loyihalarini bajarishdi. Deyarli barcha universitetlarning safarbar bo'lish va yangi rejimda ishlashga tayyorligi talabalar va o'qituvchilar uchun barqarorlik hissini saqlashga imkon berdi.

Pandemiya sharoitida universitetlar faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, masofadan turib ishlash davrida o'quv faoliyatini tashkil etish-

ning bir necha usullari ishlab chiqildi:


- ❖ sirtqi (talabalar materialni o'qituvchi tomonidan belgilangan muddatlarga muvofiq, qulay vaqtda o'rganishadi);

- ❖ sinxron (bir vaqtning o'zida darsda qatnashish, masalan, vebinar formatida);

- ❖ aralash (pedagogik vazifalarga qarab sinxron va asinxron o'zaro ta'sirning kombinatsiyasi).

Ushbu rejimlar pandemiya sharoitida o'zini namoyon qilgan oliy ta'lim tizimining kuchli ichki farqlanishini aks ettirdi. Qator universitetlarda infratuzilma va raqamli texnologiyalar bilan ishlash tajribasi yetarli emasligi ko'zga tashlandi. Masofaviy ish formatiga samarali o'tish va ta'lim kombinatsiyalarini zudlik bilan o'zgartirish jarayonlarida oqsash sezildi. Bu ba'zi universitetlarning o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish sohasidagi qo'loqligidan dalolat berdi.

Shunday qilib, 2020-yil tajribasi universitetlarning nafaqat an'anaviy, balki yangi vazifalarni hal qilish uchun masofadan turib ishlash formatlari va texnologiyalaridan foydala-



nishning keng imkoniyatlarini ko'rsatdi. Masofaviy ta'limga o'tgan universitetlarning tajribasi raqamli texnologiyaning imkoniyatlarini namoyish etdi.

Ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchilar, menejerlar, talabalar maxsus kompetensiyalari hamda samarali va qulay texnologik yechimlarni, o'quv jarayonini maxsus tashkil etishni talab qilishi aniq bo'ldi. Bu holda masofaviy formatda to'laqonli ta'lim to'g'risida gapirish mumkin emas. Vaziyat universitet hayotining bir qator eng muhim jarayonlarini raqamlashtirish va virtual rejimga o'tkazish qiyinligini tasdiqladi. Amaliyotda masofaviy formatda oliy ta'lim dasturlarini to'liq amalga oshirish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar, umuman olganda, yangi sharoitlarda ishlay oladi, ammo muam-mo ish jadvali va mavjud resurs-

lardan xabardor emasligida. Shu bilan birga, o'qituvchilarning katta qismi uy sharoitida ishlashda ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Sinxron rejimda ishlagan o'qituvchilar o'ziga xos uslubiy qiyinchiliklar qatorida e'tiborni saqlash va o'quvchilarni jalb qilishda qiynaladi. Ma'ruzalarning masofaviy formatda o'tishi talabalarining o'quv jarayoniga jalb etilishini nazorat qilishga imkon bermadi.

Ko'pgina tanish formatlarning oflaynga qaraganda kam samaradorligi isbotlangan. Masalan, imtihon payti talabalar orasida vijdotsiz xatti-harakatlar amaliyotining ko'payishidan qo'rqishadi, ularni masofadan boshqarish qiyinroq. Laboratoriya yoki maxsus jihozlarni talab qiladigan fanlarni o'qitadigan o'qituvchilar qiyin ahvolga tushib qolishdi. Aksariyat holda ular uslubiy va texnologik yordam olmadilar.

Ta'lim jarayonining yangi modelini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati ayon bo'ldi. Bunday modelda talabalar va o'qituvchilarning an'anaviy to'g'ridan to'g'ri o'zaro munosabatlari, odatdagi shakllardagi amaliy, ilmiy va ijtimoiy faoliyatlarini masofaviy formatda sinxron o'qitish, onlayn kurslar va simulyatorlardan foydalanish bilan birlashtirilib, raqamli didaktika bilan ta'minlanadi.

Pandemiya o'quv jarayonini individualizatsiya qilish va optimallashtirish, yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini ham ko'rsatdi.

Raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'limni talabalar va o'qituvchilar uchun samarali va qulay qilish uchun mavjud infratuzilma imkoniyatlari, raqamli manbalari va vositalari, uslubiy yechimlar yetarli emas. Yangi texnologiyalar bilan raqamli manbalarni va o'quv jarayonining tegishli amaliyotini rivojlantirishni jadallashtirish, o'qituvchilarning uslubiy malakasini oshirishni rag'batlantirish, samaradorlikni daliliy tadqiq qilish zarur.

Yangi vaziyat oliy ta'limni boshqarish tizimini tubdan o'zgartirishga, shu jumladan, kuzatuv kengashlari vakolatlarini kengaytirish, nazorat faoliyatini modernizatsiya qilishga ehtiyoj tug'diradi.

Ziyoda MUHAMMEDOVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

Qalbda So'lmas Sultonov

(Esse)

Bunday olib qarasa, Alisher Navoiy nomidagi Respublika nafis san'at litseyida o'qib kam bo'lmadi (bitiruvchilarning 20 yillik uchrashuvidagi xulosalarimiz ham shuni isbotladi). Hozir o'ylasam, biz tengilar o'qigan 1995–1998-yillar hali mamlakatimiz yosh, vatan tuyg'usi ancha-muncha beg'ubor, mustaqillik g'oyasiga ishonch yuqori paytlar edi. Aynan shu yillari Nafis san'at litseyi chinakam dovrug' qozongandi. Bitiruvchilarning aksariyati respublika va chet ellardagi nufuzli oliy o'quv yurtlariga bemaol o'qishga kirar edi. Ustozlarimiz ham bizni vatanparvarlikka samimiy undardi. Ayniqsa, bu tarbiya ota-onasidan uzoqda yashab o'qiganlarga kuchli ta'sir qilgan. Men bunga bitiruv kechamiz tugab, hammaga javob berilgach, ko'pgina bolalarning ko'zyoshlarini ko'rib amin bo'lganman. Xuddi yetim qolayotganday uvvos tortib yig'lagan tупpa-tuzuk yigitlarning, agar imkon bo'lsa bir umr bu yerdan ketmasdim, deganlarini eshitganman. Bu ham bo'lsa "Ta'lim fidoyisi" ko'krak nishoni sohibi, tarix fanlari nomzodi So'lmas Sultonov singari o'qituvchilarning mehri natijasidir.

So'lmas Sultonov juda kamtar, odamoxun inson edi. Direktor bo'lsa ham istalgan fikr-mulohaza, taklif, shikoyatni unga bemaol aytish mumkin edi. Odamlarni tinglashni bilardi. Ustozning asosiy yutug'i ham shu edi. Bunga doir bir necha dalillarimni keltiram:

Birinchi etyud

Avtobusda Buxoroga sayohat qildik. Hazrat Bahovuddin ziyoratgohida yurganimizda sayrbon hikoya qilarkan, Amir Temurning uzugida "Rosti-rusti", ya'ni faqat rost gapir deyilgan deb qoldi. Men "Kuch adolatdadir" dedim. Shundan so'ng sayrbon gapini tuzatib ketdi. O'shanda So'lmas aka "mana, bizning o'quvchilar ziyarak, bilimli" deb xursand bo'ldi. Ochig'i, men urushadi, deb o'ylagandim.

Ikkinchi etyud

Haftalik gazetalarini o'qib borishga harakat qilardim. Ba'zida kutubxonachilar yangi gazetalar direktorda deyishsa, So'lmas akadan olib ketardim. Bir kuni yonida odam bor ekan. Foyedagi o'rindiqda o'tirib kutdim. Bir kishi ham kutib turgan ekan. U "siz ham direktorgami?" deb so'rab qoldi. Ha, yangi chiqqan gazetalarini olishim kerak, dedim.

U "yangi gazetalarini direktordan olib o'qiyisizmi, kutubxonaga borsangiz bo'lmaydimi?" deb hayron bo'ldi.

Uchinchi etyud

Bir kuni litsey hovlisida bir qator o'quvchilar bir-birimizdan sen qayerliksan, deb gaplashib tursak, So'lmas aka "nima farqi bor qaysi viloyatdanligini, hammamiz bitta — o'zbekistonlikimiz" deb tanbeh bergandi.

To'rtinchi etyud

Bir gal bolalar bilan mushtlashib o'qishdan haydaladigan bo'ldim. Otam kelib iltimos qilib ko'rdi. Bo'lmaidi. Mehnat ta'tilida bo'lsa-da, So'lmas akayam litsey kengashi yig'ilishiga keldi. Kechgacha majlis bo'ldi, buyruq chiqarildi. Men uchun "Haydali" kuyi chalin-di...

Ketish uchun darvozaga qarab borarkanmiz, otamga, shu yerda bir yarim yil o'qidim, non-tuzini yedim, kirib ustozlarim bilan xayrlashib ketay, dedim. Mayli bor, dedi.

To'g'ri ikkinchi qavatga — o'qituvchilar xonasiga chiqdim. Koridorda hech kim yo'q. Eshik ochiqligi uchun xonadagi ovozlari eshitilib turardi. Adashmasam kechki soat yettalar edi. Bexosdan o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Go'zal Hasanovning Laziz deb ismimni aytib gapirayotganini eshitib qoldim. Shartta eshikka yetmay to'xtadim. Devoriy gazetalarini tomosha qilib, biroq eshitib turdim. Go'zal opa:

— Litsey kengashi yig'ilishida Lazizni o'qishdan haydashga birinchi bo'lib Farhod qo'l ko'tardi. Salima uni haydash kerak desa, Barno bilan Ra'no o'qishda qolishiga harakat qilishdi, — dedi.

Shundan keyin eshikni sekin taqillatdim-da, ichkariga kirdim. Xayrlashish uchun kelganimni, biror



gap o'tgan bo'lsa, kechirishlarini, yillar o'tib olim bo'lmasam-da yaxshi odam bo'lsam, shuning o'zi yetarli ekanini aytдим.

Go'zal opa besh-olti o'qituvchi bilan gaplashib o'tirgan ekan:

— Laziz, hozir seni o'qishda olib qolsam, qolgan bo'larmiding? — deb so'radi.

Hazil ko'ngilga sig'adigan payt emas. Bu endi, o'lganning ustiga tepganga o'xshash, ishonib bo'lmas gap edi. Hayron bo'ldim, ustozning gaplariga ishonmadim. Chunki bir haftadan beri meni nuqul yomonlashayotgandi-da. Ta'kidlash joizki, litseyda tartib-intizomga talab juda kuchli bo'lib, agar uni buzsang, a'lo o'qishingga qaramasdan ham o'qishdan haydashardi. Biz o'qish davomida bu holatga juda ko'p marta guvoh bo'lganmiz.

Xullas, o'qishdan haydalib ketayotganimda ustoz tomonidan aytilgan bu gap meni juda hayron qoldirdi. — Qolgan bo'lardim, lekin... — dedim ishonqiramay. Go'zal opa meni alohida xonaga olib kirib:

— Hozir So'lmas akaning yoniga tushib ko'ndiraman, agar yana biror ishal qilsang, senga qo'shilib men ham ishdan ketaman, — dedi. Keyin ikkimiz birga So'lmas akaning yoniga — direktor xonasiga bordik. Go'zal opa So'lmas akadan meni olib qolishni, a'lochi o'quvchi ekanligimni aytdi. So'lmas aka ustozning gaplarini eshitib hayron bo'ldi: "O'zingiz haydaylik, dedingiz, endi olib qolaylik deysiz. Buni qanday tushinish kerak?" — dedi. Jahli chiqib, tutaqib ketdi.

Go'zal opa yig'lay boshladi:

— So'lmas Yo'ldoshevich, ishoning menga, Lazizni saqlab qolish orqali butun litsey obro'sini saqlab qola-

miz. Olib qolmasak, bo'lmaydi, — dedi. Ikkalasi gap talashyapti-yu, o'rtada men xijolat. Oxiri bo'lmadi, shekilli, So'lmas aka "Mana seyf kaliti, men ta'tildaman, bilganingizni qiling", deb qo'lidagi kalitni stol ustiga otib yubordi-da xonadan shitob bilan chiqdi. Go'zal opa ko'zyoshlarini artarkan, tez bor ortidan, rahmat ayt, dedi. Borsam, So'lmas aka mashinasini o't oldirib, qizdirayotgan ekan. Kuchli hayajon ostida dovdirab bir nimalar dedim. — Rahmatni Go'zal opangga ayt, buyog'iga ko'zingga qara, — dedi u kishi.

Haligacha hammasi tamom bo'lgan paytda Go'zal opa meni qattiq turib himoya qilgani uchun ich-ichimdan rahmatlar aytaman. Balki ketganimda taqdirim ham boshqacharoq kechardim...

Beshinchi etyud

11-sinfda yiqilib tushib, oyoq-qo'lim sinib, boshim yorilib, miya chayqalishi ro'y bergandi. So'lmas aka "meni ancha tashvishga qo'yding, o'shanda seni o'qishdan haydashga yaxshi bo'larkan" deb hazillashib gapirib qo'yardi. 2005-2006-yillari edi adashmasam, "Sofiyskiy" ko'prigining yonidan o'tib ketayotganimda So'lmas akani ko'rib qoldim. Markaziy ATSDan chiqayotgan ekan. Chakkasi yorilgan. Aytishicha, pensiyaga chiqibdi, hovlisida qo'chqor bo'qarkan. Qo'chqorlarga yem berayotganda, ulardan biri qo'raning eshigiga kalla qo'yibdi. Eshik kelib So'lmas akaning boshiga tegib yoribdi. — Shifokorga borsam, miyangiz chayqalibdi, deyishdi. Shunda seni esladim, — dedi So'lmas aka. Keyin So'lmas akani qaytib ko'rmadim.

Oltinchi etyud

Bir kuni litseyda So'lmas akaga adashmasam, "Ta'lim fidoyisi" ko'krak nishonini topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Unda vazir Jo'ra Yo'ldoshev so'zga chiqdi. So'lmas akayam yumorga usta edi-yu, ammo Jo'ra G'aniyevich hazil-mutoyibani qalpoq qilib qo'yardi. Vazirning o'sha tadbirdagi mana bu hazilomuz gaplari yodimda qolgan:

— Men So'lmasdan 10 yosh kattaman. Biz uning katta akasi Tolmas bilan tengdoshmiz. Bular o'zi besh aka-uka: Tolmas, O'lmas, So'lmas, Ayrimlas, Qayrilmas, deganda zalda kulgi ko'tarilgandi.

Shogird kamoli — ustoz jamoli, deganlaridek boshqa ustozlarimiz qatori So'lmas akayam ozmi-ko'pmi bugungi yutuqlarimizni ko'rganda juda xursand bo'lardi. Men bunga aminman.

Yuqoridagilarni o'qigan o'quvchida Alisher Navoiy nomidagi Respublika nafis san'at litseyi hozir ham mavjudmi, degan savol tug'ilishi mumkin. Afsuski, yo'q.

Qayd etish joizki, litsey bolalarining aksariyati hayotda o'rmini topib ketishdi. Deyarli hammasi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'qishdi. Hozir elimizning oldi odamlari qatorida hayot kechirishmoqda. Ular ichida malakali o'qituvchilar, bilimdon yuristlar, zukko iqtisodchilar, iste'dodli jurnalistlar, san'atkorlar, olimlar bor. Masalan, bugun ko'pchilik taniyidigan jurnalist Alimardon Hayitov, Avaz Berdiqulov, shoir Shuhrat Orif, rejissyor Jo'rabek Ro'zmetov, deputatlar — Muxtabar Husanova, Rasul Kuserboyev, xonanda Ulug'bek Rahmatullayev, aktyorlar Bahrom Usmonov, Dilnoza Kubayevalar shu litsey o'quvchilardir. Dilga mahzunlik beradigan holat litsey tarbiyalagan bolalarning dunyo bo'ylab tarqalib ketganidir. Bugun AQSH, Yaponiya, Malayziya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda litsey bitiruvchilari yashab, istiqomat qilishmoqda.

Vaqt kelib, Nafis san'at litseyi qayta tashkil etilib, uning ta'lim-tarbiya berish an'analari tiklansa, mamlakatimiz ma'rif sohasi bundan faqat yutadi, deb o'ylayman. Litsey bitiruvchilarining hayoti va samarali faoliyati shunday xulosaga kelishga imkon beradi.

Shanxaydagi maktablar

faoliyatini takomillashtirish uchun vakolatli boshqaruv dasturi

□ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining PISA dasturiga ko'ra, umumiy jihatdan Shanxay davlat maktab o'quvchilari dunyo miqyosida olib qaralganda sezilarli darajada yaxshi natijalarga ega. Shanxay ushbu natijalarga mamlakat miqyosida yuqori ko'rsatkichlarga ega maktablari bilangina emas, balki butun ta'lim tizimidagi eng yaxshi o'qitiladigan maktablarni nisbatan kuchsiz maktablarga birlashtirish orqali erishgan. Shanxay ta'lim tizimi barcha o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yaxshi faoliyat olib borishi kerak degan qoidaga asoslanadi.



So'nggi yillarda Shanxayning turli sohalarida sezilarli darajada o'sishi kuzatildi, jumladan, aholi soni 2000-yilda 16,7 million kishi bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 24 milliondan oshdi. Aholining tez sur'atlarda o'sib borishi shaharning sezilarli darajada kengayishiga va uning infratuzilmasi hamda xizmat ko'rsatish sohasiga katta ta'sir o'tkazdi. Taraqqiyotning bunday darajasi davlat xizmatlari uchun qiyinchiliklar tug'dirishi bilan bir qatorda ta'lim tizimida yangi islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi.

Turli sohalar taraqqiy etishi, jumladan, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, ayniqsa, maktablar samaradorligidagi farqlar tobora kengayib borayotganligi xavotirga sabab bo'ldi.

Xususan, Shanxayning yangi chekka tumanlaridagi maktablarning shaharning ancha rivojlangan maktablariga nisbatan samaradorligi pastligi borasida xavotirlar yuzaga keldi. Ushbu muammolarni hal qilishda vakolatli boshqaruv dasturining yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Vakolatli boshqaruv dasturi — bu nisbatan quyi ko'rsatkichlarga ega maktablarga o'quvchilar bilimni yaxshilashga yordam berishi mumkin bo'lgan yuqori ko'rsatkichlarga ega maktablarni birlashtirib, birgalikda rivojlantiruvchi dasturdir. Ushbu dasturda nisbatan quyi ko'rsatkichlarga ega maktablarning samaradorligini oshirish maqsadida yuqori ko'rsatkichlarga ega maktablar bilan hamkorlikda odatda ikki yillik shartnoma tuziladi.

Aksariyat innovatsion ta'lim dasturlari singari, vakolatli boshqaruv dasturi

ham manfaatdor tomonlar va muayyan sharoitlarga qarab rivojlanib bormoqda. Dastur natijalarini statistik tahlil qilish hali yo'lga qo'yilmagan bo'lsa-da, ta'limning barcha darajalarida — maktabda, maktab okrugida, munitsipalitetda va hattoki milliy miqyosda siyosatchilar tomonidan bu ta'limning tengsizligini hal qilishda va nisbatan quyi darajadagi maktablarni takomillashtirishda samarali dastur sifatida qaraladi.¹

Vakolatli boshqaruv dasturi davlat maktablari tizimlarida qanday qilib samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy jihatlari:

- ⇒ Nisbatan quyi va yuqori ko'rsatkichlarga ega maktablarni aniqlash;
- ⇒ Maktablar bilan shartnomaviy bitimlar tuzish;
- ⇒ Nisbatan quyi ko'rsatkichga ega maktablarning rivojlanish bosqichlarini belgilab olish;

Baholash va hisobot tamoyillari yordamida natijalarni aniqlash.

Shanxaydagi nisbatan quyi va yuqori ko'rsatkichga ega maktablarni aniqlash

Vakolatli boshqaruv dasturining asosiy boshlang'ich bosqichi nisbatan quyi va yuqori ko'rsatkichlarga ega maktablarni aniqlashdir. Maktablarni tan-

¹Yongyuan Yin va Guixin Vang, "Shanxay: Aholini rejalashtirish va shaharlarning barqarorligi". Yongyuan Yin va Guixin Vang, va boshq., Aholi punktlarini rivojlantirish, jild. 2 (Nyu-York: Birlashgan millatlar nashriyoti, 2006); Xitoyning milliy statistika byurosi, "Xitoy Xalq Respublikasi Milliy statistika byurosining 2010-yilgi Aholini ro'yxatga olishning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida xabaromasi [1] (1)", http://www.stats.gov.cn/english/newsandcomingevents/t20110428_402722244.htm (2012-yil sentabr).

lash mezonlari qat'iy emas va markaziy ma'muriyat tomonidan belgilangan miqdoriy ko'rsatkichlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Bunda nisbatan yuqori va quyi ko'rsatkichli maktablarni aniqlash uchun javobgarlik asosan maktab hamda tuman darajasida bo'ladi. Chunki maktab joylashgan tuman o'z hududidagi maktablar haqida har tomonlama ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Masalan, maktab va tuman rahbarlari nisbatan quyi hamda yuqori ko'rsatkichlarga ega maktablarni aniqlashga mas'uldirlar va ular qabul qilgan qarorlari uchun javob beradilar. O'z navbatida, maktab faoliyatini samarali yuritgan maktab va tuman rahbarlari mukofotlanadi. Vakolatli boshqaruv dasturi doirasida maktablarni aniqlash uchun bir nechta omillar qo'llanadi. Ushbu omillarning ayrimlari batafsil ko'rib chiqiladi.

Maktab ma'lumotlari va bilim omili

Maktablarda amalga oshirilayotgan ishlar va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar bir nechta usullarda to'planadi. Bu maktab faoliyatini, o'quvchilarning maktab darajasidagi bilimlarni o'zlashtirish darajasini o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar barcha maktablar kesimida to'planadi, ammo ular jamoatchilikka ochiq taqdim etilmaydi va ular vakolatli boshqaruv dasturi samaradorligini qat'iy tahlil qilishga imkon bermaydi.

Maktab va tuman rahbarlari o'z maktablarini bilishlari shart. Bu maktab miqyosidagi xodimlarni baholashning asosiy tarkibiy qismidir.

Bunga nafaqat faoliyat ko'rsatkichlari, balki tumanning har bir maktabida har kuni sodir bo'layotgan voqealar kiradi. Maktab va tuman miqyosidagi ta'lim mutasaddilari maktablar bilan doimiy aloqada bo'ladi. Bunda turli yig'ilishlarda ishtirok etish va maktabga borish, ular bilan faoliyat olib borishni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda maktablar bilan maktab okrug va o'z navbatida munitsipalitet o'rtasidagi aloqalarni nazorat qilish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratiladi.

To'plangan ma'lumotlar maktablarni, ayniqsa, nisbatan quyi ko'rsatkichli maktablarni baholash natijalari to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beradi. Baholash jarayoni o'quvchilarning faoliyatini to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga olib, maktabdagi ta'lim jarayoni to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar maktab va tuman rasmiylarining maktabga tashriflari bilan to'ldiriladi. Kasbiy rivojlanish yutuqlari, jamoatchilik bilan aloqalar va o'quvchilar uchun darsdan tashqari ishlar ham muhim hisoblanadi.

Baholash va monitoring omili

Vakolatli boshqaruv dasturida maktablar o'rtasidagi individual shartnomalarni batafsil baholash maktab faoliyatini to'g'risida doimiy ravishda to'planadigan ma'lumot turiga misoldir. Bu o'quvchilarning bilimi va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini, hamkorligi va samaradorligini oshirish uchun muhim bo'lgan maktab faoliyatini jihatlari, shu jumladan, sinfiy kuzatuvlarda sifat jihatidan yaxshiroqdir.

Ko'pgina boshqa tizimlardan farqli o'laroq Shanxay ta'lim tizimining asosiy jihati shundaki, dasturlar, resurslar va xarajatlar doimiy ravishda nazorat qilinadi va baholanadi, zarur bo'lganda resurslar qayta taqsimlanadi.

Ko'nikmalarning o'zaro munosiblik omili

Ikkala maktabning o'zaro munosibligi, ya'ni biri nisbatan yuqori ko'rsatkichli, ikkinchisi esa nisbatan quyi ko'rsatkichga ega bo'lishi muhimdir. Birlashtirilgan maktab faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yaxshilash uchun yuqori ko'rsatkichlarga ega maktabda zarur ko'nikmalar mavjudmi? Ushbu tahlil ikki maktab o'rtasida tuzilgan bitim turiga va hal qilinishi kerak bo'lgan aniq masalalarga qarab farq qiladi. Ammo past natija ko'rsatuvchi maktabga zarur ko'nikmalarni egallab olishga yoki unga yordam ko'rsatish ko'pincha yuqori natija ko'rsatuvchi maktab direktoriga bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan past ko'rsatkichli maktab natijalarini yaxshilash uchun asosiy mas'uliyat maktab direktorlariga yuklatilgan. Yuqori ko'rsatkichga ega birlashtirilgan maktab direktorlari boshqa vazifalar qatorida takomillashtirish strategiyasi va rejasini ishlab chiqish, past ko'rsatkichli maktabda yetakchilik qobiliyatini yaxshilash, o'qish va o'qitish tizimini takomillashtirish uchun tuzilmalar yaratish va ikki maktab o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish uchun javobgardir.

Imkoniyatlar

Maktablar o'rtasida kelishuvlar o'rnatishda imkoniyatlar chegarasi har doim hisobga olinadi. Bu, ayniqsa, yuqori darajadagi maktab bir nechta maktabga yordam berish uchun kelishuvga ega bo'lganda, muhim masaladir.² Qo'llab-quvvatlayotgan maktab boshqa maktabga o'z faoliyatiga ziyon yetkazmasdan yordam berish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Shunday qilib, u o'qituvchilarni rivojlantirish va o'quvchilarni

² Yuqori natijalarga erishgan maktablarning boshqa maktablar bilan ko'p bitimlar tuzishi odatiy holdir. Masalan, Shanxay eksperimental maktabi besh xil maktabga yordam berish uchun beshta kelishuv bilan shug'ullangan.

Shanxaydagi maktablar

faoliyatini takomillashtirish uchun vakolatli boshqaruv dasturi

ning bilimlarini yaxshilaydigan samarali pedagogika, shuningdek, yuqori darajadagi menejment va ilg'or o'qituvchilar mahoratlarini kabi muhim sohalarida imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bundan maqsad — boshqa maktabga berilayotgan har qanday yordam yuqori natijalarga erishgan maktab ko'rsatkichlarining pasaytmasligini ta'minlashdir.

Biroq maktablar o'rtasidagi hamkorlik nolga teng keladigan o'yin emas. Darhaqiqat, ikki maktab o'rtasidagi kelishuvdan unumli foydalangan maktablar ko'pchilikka ma'lum. O'qituvchilar va maktab direktorlari o'rtasidagi ma'lumot oqimi almashinuvi fikrlar va ilg'or tajribalarini almashishni kuchaytiradi. Maktab direktorlari, boshqa maktab rahbarlari va o'qituvchilar faoliyati samaradorligi ko'pincha ularning turli muhitlardagi yangi muammolarga duch kelganda va o'z maktab tizimida o'qitish va uni takomillashtirish vazifasini o'z zimmasiga olganda yaxshilanadi.

O'z navbatida, nafaqaga chiqishga yaqin bo'lgan malakali o'qituvchilar va maktab yetakchilari nisbatan quyi ko'rsatkichga ega maktabga birlashtirilib, bu yerda ular hayotiy ko'nikmalar va tajribalarini berishga muvaffaq bo'lishdi.

Maktablar o'rtasida kelishuv bitimini joriy etish

Yuqori ko'rsatkichga ega maktablar odatda okrugdagi quyi ko'rsatkichga ega maktablar bilan o'zaro bitim imzolaydi. Ammo bu bitim Shanxay munitsipaliteti ichida okruglararo tuziladigan bo'lsa, kelishuv munitsipalitet ishtirokida bo'ladi. Yuqori ko'rsatkichlarga ega maktablar Shanxay munitsipalitetidan tashqaridagi maktablar bilan ham bir necha kelishuvlarni imzolagan. Bundan maqsad ushbu dasturni va malakani Xitoyning boshqa qismlarida ham yo'lga qo'yishdir.

Maktablar o'rtasida tuzilgan shartnoma yoki bitimda foydalaniladigan muddat, narx va monitoring hamda baholash mexanizmlari ko'rsatib o'tiladi. Shartnomaning muddati odatda ikki yilni tashkil qiladi. Agar barcha tomonlar muayyan maktabni takomillashtirish uchun qo'shimcha vaqt kerak degan xulosaga kelsalar, bunda shartnoma besh yilgacha uzaytirilishi mumkin. Ikkala tomon ham muddatning uzaytirilishini foydali deb hisoblasa, ya'ni quyi ko'rsatkichga ega maktabni takomillashtirishni aniqlagan, keyingi yutuqlar mavjudligini nazarda tutgan holda, birinchi bosqich ijobiy natija ko'rsatgan bo'lsa, shartnomani yana ikki yilga uzaytirish mumkin.

Shartnoma muddati ikki omilga bog'liq. Birinchidan, ikki yil davomida maktabni ijobiy tomonga o'zgartirish bo'lsa, ikkinchidan, shu ikki yil muddatda yuqori ko'rsatkichga ega maktab quyi ko'rsatkichga ega maktabga eng

ko'p yordam ko'rsatadigan davrdir. Ammo maktabga tashqi aralashuvning ijobiy ta'siri ham ma'lum chegaraga ega. Yuqori ko'rsatkichga ega maktab yangi dasturlarni, yangi ta'lim va o'qitish metodlarini hamda yangi madaniyatni taklif qilishi mumkin, ammo muayyan vaqt o'tgach, jarayon muqobiligi kuzatiladi.³ Shunday qilib, agar barcha tomonlar ushbu muddat ichida maktabning yanada ijobiy tomonga yaxshilanishi to'g'risida xulosa qilsa, shartnomalarni faqat qo'shimcha ikki yoki uch yilgacha uzaytirish mumkin.

Kelishuv turlari

Kelishuvlar aksariyat hollarda bir xil maktablar o'rtasida tuziladi. Ammo ayrim hollarda yuqori maktab quyi maktabga birlashtirilishi ham mumkin. Bunday kelishuvlarda yuqori ko'rsatkichga ega maktab quyi ko'rsatkichga ega maktabni o'z mas'uliyati doirasida ko'radi. Ba'zi hollarda maktabning nomi yuqori ko'rsatkichga ega maktab nomi bilan hamohangligini ko'rishimiz mumkin.

Boshlang'ich maktabni tamomlagan o'quvchilar shaharning boshqa qismidagi yuqori maktabga borishlari mumkin. Bu boshlang'ich maktab ko'rsatkichlarini tezda yuksaltiradi.

Yuqori ko'rsatkichga ega maktab o'z nomini quyi ko'rsatkichga ega maktabga berishi orqali o'z nomining keng tarqalishini ta'minlaydi. Ular oldidagi mas'uliyatni yanada oshirib, quyi ko'rsatkichga ega maktabning yuqori ko'rsatkichga ega maktab natijalariga intilishini ta'minlaydi.

Shanxayda quyi ko'rsatkichga ega maktablarni takomillashtirish bo'yicha vakolatli boshqaruv dasturi samarali faoliyat olib bormoqda va uning ko'lami kundan-kunga kengaymoqda. Shanxaydagi ta'lim mutasaddilari PISA tadqiqoti natijalariga tayangan holda Shanxayni dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichli ta'lim tizimiga aylanishiga yordam bergan deb hisoblashadi.

Shubhasiz, o'qituvchilar va siyosatchilar uchun Shanxay dasturini o'rganish va undan mahalliy sharoitda manfaatli foydalanish uchun imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari, dasturning bir nechta jihatlari mavjud bo'lib, ular faqat Shanxayda qo'llangan. U yerdagi o'zgaruvchan maktablarni yaratish bo'yicha dalillar butun dunyo ta'limiga juda mos keladi. Vakolatli boshqaruv dasturi quyi ko'rsatkichli maktablarni takomillashtirishda

³ Buni yuqori natijalarga erishgan maktab ta'limi tizimiga ega bo'lgan boshqa mamlakat — Singapur amaliyoti bilan taqqoslash qiziq. Singapuradagi maktab direktorlari har besh-yetti yilda maktablar o'rtasida almashirib turiladi. Bu nafaqat maktab direktoriga butun faoliyati davomida keng tajriba beradi, balki bu maktab direktorining maktabga maksimal darajada ta'sir ko'rsatadigan davri hisoblanadi. Jensen va boshqalar, «O'qish: Sharqiy Osiyodagi eng yaxshi maktab tizimlaridan o'rganish».



bizga ma'lum bo'lgan narsalarni amalga oshirish uchun namuna bo'la oladi.

Quyi ko'rsatkichli maktablarni takomillashtirish bosqichlari

Maktablarni takomillashtirish borasidagi ma'lumotlarga ega har qanday shaxs ularni o'zgartirish uchun muhim bo'lgan jihatlarni biladi. Maktablar muammolarga turli yo'llar bilan yondoshsa-da, bunda ko'zlangan asosiy maqsad o'zgarishsiz qoladi.

Yuqori ko'rsatkichga ega maktablarga o'ziga birlashtirilgan maktablar bilan birgalikda faoliyatini olib borish mas'uliyati topshiriladi. Faoliyat jarayonida yuqori ko'rsatkichga ega maktablarning ikki yoki uch nafar malakali o'qituvchilar jamoasi quyi ko'rsatkichli maktablarga kundalik tashrifni amalga oshiradilar. Faoliyat jarayonida jamoa a'zolari maktabda yangi dasturlarni amalga oshirish bilan bir qatorda turli sohalarida yetakchilarni ham belgilab boradilar.

Ba'zi hollarda quyi ko'rsatkichga ega maktablarning o'qituvchilari va yetakchilari qanday qilib takomillashtirish mumkinligi aytilganda o'zlarini tashvishli va behalovat his etadilar. Bu muammolarni ko'pincha ikkala maktab hamkorlikda o'qish va o'qitishni rivojlantirishga ko'proq urg'u berish orqali bartaraf qiladilar.

⇒ Yuqori ko'rsatkichga ega maktablardan maktab faoliyatini takomillashtirishda quyidagi omillardan foydalanishlari kutiladi:

- ⇒ Maktab yetakchiligi va strategik rejalashtirish;
- ⇒ Maktab madaniyati va tashkiloti;
- ⇒ Samarali o'qitish;
- ⇒ O'quvchilarning o'rganish odobi;
- ⇒ Maktabning mahalliy hamjamiyat bilan aloqasi.

Xulosa

Shanxayda quyi ko'rsatkichga ega maktablarni takomillashtirish bo'yicha vakolatli boshqaruv dasturi samarali hisoblanadi va u bugungi kunda ham kengaytirilmoqda. O'zining PISA

ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, ta'lim rahbarlari bu Shanxayni dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichli ta'lim tizimiga aylantirishga yordam bergan deb hisoblashadi. Shubhasiz, o'qituvchilar va siyosatchilar Shanxay dasturidan o'rganish va o'zlarining mahalliy sharoitlarida foydali narsalarni qo'llashlari uchun imkoniyatlar mavjud. Shanxay misolida biz qanday qilib o'zgaruvchan maktablarni yaratish bo'yicha dalillar butun dunyoga juda mos kelishini bilib olishimiz mumkin. Vakolatli boshqaruv dasturi quyi ko'rsatkichga ega maktablarni takomillashtirishda biz bilgan narsalarni amalga oshirish uchun namuna beradi.

Dastur Shanxay maktab tizimida mavjud bo'lgan kuchli tomonlardan foydalanib, quyi ko'rsatkichga ega maktablarga yordam beradi. Yuqoridan yuqoriga yondashishni qo'llash o'miga, bu maktablarni bir-biri bilan ishlashga majbur qiladi. Hamma joyda o'qituvchilar ushbu hisobotda keltirilgan usullarni maktab faoliyatini, ta'limning boshqa yo'nalishlarini yaxshilash uchun samarali ishlatish mumkinmi deb o'ylashlari kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, Shanxayda ta'limning kuchli tomonlarini ta'kidlash va o'qituvchilarning faoliyati, u yerdagi martaba hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) aksariyat mamlakatlardagi o'qituvchilarning faoliyati va martaba o'rtasidagi farqlarni hisobga olish kerak. Shanxay samarali kasbiy ta'limga, sinflarni kuzatishga va o'qituvchilar bilan fikr-mulohazalarga, kasbiy hamkorlikka va o'quv tashkilotlari bo'lgan maktablarni yaratish uchun o'qituvchilarning tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga sezilarli darajada katta sarmoyalar kiritadi. Ushbu sohalar vakolatli boshqaruv dasturida va Shanxayda butun ta'lim tizimida ta'kidlangan.

Xurshid AHMEDOV,

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi bo'lim boshlig'i Qodir KARIMBERDIYEV, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi bosh mutaxassisi

